



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI



AVTOMOBILLARDA TASHISH TEXNOLOGIYALARI FANINING
ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 600000 - Xizmatlar soxasi

Ta'lim sohasi: 620000 - Transport

Ta'lim yo'nalishi: 5620400 – Yo'l harakatini tashkil etish

Semest r	Fan tarkibi						Nazorat turi	Jami o'quv soati
	Ma'- ruza	Amaliy mashg'u- lot	Labora- toriya ishlari	Seminar mashg'u- loti	Musta- -qil ta'lim	Kurs ishi (loyiha)		
Sirtqi bo'lim								
IX YHT	8	10		-	102	-	Yozma	120
X YHT	10	8		-	102	-	Yozma	120

Fanning ishchi o'quv dasturi Institut ilmiy kengashining _____ dagi № ___ sonli yig'ilishida tasdiqlangan _____ raqamlik "Avtomobillarda tashish texnologiyalari" fanining o'quv dasturi asosida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi (lar):

PhD. H.Soliyev - NamMQI, "Transport logistikasi" dotsenti
U.Xidirov-NamMQI "Transport logistikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi

Taqrizchi (lar):


PhD. A.Ustaboyev - NamMQI, «Transport logistikasi» kafedrasida, t.f.n.dotsenti.

Fanning ishchi o'quv dasturi Transport logistikasi kafedrasining 2024 yil "___" _____ dagi "___" - son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakul'tet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____ A.Normirzayev

Fanning ishchi o'quv dasturi "Transport" fakultetining kengashida muhokamadan o'tgan va foydalanishga tavsiya etilgan.
(2024 yil "___" _____ dagi "___" -sonli bayonnoma).

Fakultet kengashi raisi: _____ B.Maxmudov

O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i:  dots. T.Jo'rayev

Namangan muhandislik-qurilish instituti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan. «___» _____ 2024 yildagi ___ sonli majlis bayoni. (___ - son bilan ro'yhatga olingan).

Kirish

O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishga qaratilgan dasturni amalga oshirishda fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish va kengaytirish, amaldagi ishlab chiqarishdan jadal foydalanish, boshqaruv tizimini takomillashtirish asosida ishlab chiqarishni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish eng zarur vazifalardan hisoblanadi.

Transportning yaxshi ishlashini belgilovchi muhim omillardan biri uning yuk va yo'lovchilarni tashish texnologiyalari hamda transporti tizimini rejalashtirish muntazamligidir. Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishi avtomobillarda tashish texnologiyalarini xamkorlikda tashkillash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Yuk va yo'lovchilarni oqimlarining shakllanishi manzillarga elitishda samaradorlik, qulaylik va xavfsizlik olimlar va transportda tashish ushbu yangi texnologiyalar ko'proq qo'llanishi o'z manzillariga tezroq, xavfsiz va eng kam resurslar bilan olib borishini ta'minlash maqsadida.

Transport faqat iqtisodiy vazifalarni hal etishdagina muhim bo'lmay, balki Transport texnologiyasi insonlar, tovarlarni butun dunyo bo'ylab harakatlantiruvchi vositalar, takomillashtirish va usullarni o'z ichiga oladi. Bunday natijaga erishish ulkan ijtimoiy masalani hal etishga, ya'ni mehnat rezervlaridan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Transport mamlakatda g'oyat ko'p va xilma-xil ishlarni bajaradi. U odamlarning kundalik aloqalarini, davlatlar va barcha viloyatlar hamda tumanlar o'rtasida muntazam aloqani ta'minlaydi, odamlarning madaniyat yutuqlaridan keng bahramand bo'lishiga xizmat qiladi.

Iqtisodiyotni ildam qadamlar bilan rivojlanishida avtomobil transportining o'rni beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasi shaharlarning transport va ekologik muammolari, shahar-yo'l tarmog'ini ekspluatatsiya qilish, shahar ko'cha va yo'l tarmog'ida transport zamonaviy avtomobillar soni keskin ko'paymoqda. Avtomobillarni samarali ekspluatatsiya qilish yuqori malakali kadrlar tayyorlashga talab oshirmoqda.

O'quv dasturi transporti tizimini rejalashtirishni nazariy va amaliy asoslarini o'z ichiga oladi. Dasturda transport texnologiyasi sayohatni qo'llab-quvvatlash uchun sohadagi ilg'or texnika va texnologiyalarni ishlab chiqishga tadbiiq etish asosida faoliyatni tashkil etishga oid bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishdan iborat.

I. O'quv fanining dozarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Iste'molchilarning tovar, mahsulot va xom ashyoga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash sohasidagi jadal o'zgarishlarni faqat yuk oqimlarini samarali yetkazish jarayonlarini tashkil etish va boshqarishning yangi texnologiyalarini, xususan, zamonaviy logistik texnologiyalarni qo'llash asosida amalga oshirish mumkin bo'ladi. O'z mohiyatiga ko'ra zamonaviy logistik texnologiyalar yuk oqimlari harakatini samarali tashkil etish va boshqarish jarayonlaridagi yo'qotishlar va harajatlarni kamaytirishga imkon beradi. Fanning dolzarbligi hamda unga nisbatan tobora ortib borayotgan qiziqish moddiy oqimlar bilan shug'ullanuvchi tizimlar faoliyatini zamonaviy logistik texnologiyalar asosida tashkil qilish nuqtai nazaridan yondshishning samaradorligi bilan belgilanadi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifalari.

O'quv fanining maqsadi - talabalarga avtomobillarda tashish texnologiyalarini turlarini, tashish jarayonlarida zamonaviy texnologik yondashuvlarni qo'llash, avtomobillarda transport xizmatlarini ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha texnik, texnologik va tashkiliy tadbirlarni baholashni va qo'llashni o'rgatishdir.

O'quv fanining vazifasi - talabalarda avtomobillarda tashish jarayonlarida tashish jarayonlarining zamonaviy texnologiyalaridan yuqori darajada foydalanish, ularning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish muammolari haqida nazariy va amaliy bilimlar berish, unda fanga, o'z kasbiga qiziqishni orttirish kabi sifatlarini shakllantirishdan iborat.

III. Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yidagicha talablar qo'yiladi.

Talaba: Avtomobillarda tashishni samarali tashkil etishning Respublikamiz transport sohasidagi ahamiyati;

- transport sohasida davlatning siyosati hamda uning mamlakat va jahonda rivojlanish tendentsiyasi va istiqbollari;
- avtomobillarda tashishni tashkil etish masalalarining tahlili;
- Avtomobillarda tashish texnologiyalarini qo'llanilishi ko'rsatkichlari va ularni yaxshilash imkoniyatlari;
- Avtomobillarda tashish jarayonlarida xizmat sifatini oshirishning uslublari;
- tashish jarayonlarining samarali boshqarilishini iqtisodiyotga ta'siri haqida *tasavvurga ega bo'lishi*;
- sohadagi chet el va mamlakatdagi ilmiy-texnik taraqqiyot haqidagi ma'lumotni tizimlashtirishni;
- turli sharoitlarda tashish jarayonlarini tashkil etish imkoniyatlarini aniqlashni;
- avtomobillarda tashish texnologiyalarini qo'llash va tashish samaradorligini hisoblashni;
- sohadagi mavjud asosiy huquqiy va me'yoriy hujjatlarni *bilishi va ulardan foydalana olishi*;
- avtomobillarda tashishga bo'lgan talablarni o'z vaqtida qondirish;
- Avtomobillarda zamonaviy tashish texnologiyalarini qo'llash usullarini o'rganish va ularni belgilovchi ko'rsatkichlardan foydalanish;
- Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali transport vositalarida tashish unumdorligini oshirish;
- tashish jarayonlarini samarali boshqarish orqali raqobatbardoshligini iqtisodiy baholash *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

IV. Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi.

“Avtomobillarda tashish texnologiyalari” fani umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 5 kurslarda o'qitilishi maqsadga muvofiq. Ushbu fan “Transport umumiy kursi”, “Transport logistika” hamda “Jamoat transporti harakatini tashkil etish” kabi umumkasbiy fanlar va ixtisoslik fanlari bilan o'zaro bog'liq hamda uslubiy jihatdan uzviydir. Avtomobillarda tashish texnologiyalarini turlarini, Tashish jarayonlarida zamonaviy texnologik yondashuvlarni qo'llash, Avtomobillarda transport xizmatlarini ko'rsatishni takomillashtirish buyicha texnik, texnologik va tashkiliy tadbirlarni baxolashni va kullashni bilimlariga ega bo'lishlari zarur.

V. Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalar “Avtomobillarda tashish texnologiyalari” fanini o'zlashtirishlari uchun, o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga ega. Bu texnologiya o'z ichiga interaktiv ta'lim jarayonining uslubiy, mazmuniy va kommunikatsion ta'minoti kosponetlari va o'zaro bog'liqligini o'z ichiga oladi va amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim masalalarni o'z ichiga oladi:

- ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarni o'rganish;
- DTS, o'quv rejasi va dasturlarini bugungi kun talablariga mosligi;

- fanlar nomi va soni, ketma-ketligi va mazmunining uzviy bog'liqligini ta'minlash. Shularga asoslangan holda o'quv jarayonini tashkil etishning ilg'or interaktiv texnologiyalari ishlab chiqiladi.

Aqliy hujum – g'oyalarni generatsiya (ishlab chiqish) qilish megodidir. «Aqliy hujum» metodi biror muammoni yechishda talabalar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan eng samarali metoddir. Aqliy hujum metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud.

“SWOT-TAHLILI” metodi -ta'lim tizimida eng ko'p qollanadigan va yaxshi samara beradigan uslublardan biri hisoblanadi.

S – (strength) kuchli tomonlari

W – (weakness) zaif, kuchsiz tomonlari

O – (opportunity) imkoniyatlari

T – (threat) xavf, to'siqlar

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilim va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholash, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

VI. Fanning ma'ruza mashg'ulotlari mazmuni MA'RUZA MASHG'ULOTLARI

IX-semestr.

1-modul. Avtomobil transportida yuk tashishni tashkil etish va boshqarish

1-mavzu. Transport vositalari va ularga quyiladigan asosiy ekspluatatsion talablar.

Transport vositalari tasnifi. A va B guruxli avtomobil va avtopoezdlar. Umum foydalanish yo'llaridan tashqarida ishlovchi avtomobillar. Transport va maxsus avtomobillar. Avtomobil-tyagachlar. Tirkama va yarim tirkamalar. Avtomobillar, tirkama va yarim tirkamalar kuzovlarining turlari. Universal va ixtisoslashtirilgan kuzovlar. Samsovallar, furgonlar, sisternalar. O'zi ortuvchi avtomobillar. Avtomobillar o'lchami va massa ko'rsatkichlarining ruxsat etilgan ulchamlari. Transport vositalariga kuyiladigan asosiy ekspluatatsion talablar. Transport vositalaridan foydalanishda transport, yo'l, iqlim va tashkiliy- texnik sharoitlar. Transport vositalarining asosiy texnik-xususiyatlari va ularning amaliyotdagi ahamiyati: tortish-dinamik xususiyati, yonilg'i iqtisodligi, bo'sh qariluvchanlik, turg'unligi, o'tag'onligi, sig'dirish xususiyati, mustaxkamligi, chidamliligi, xarakat ravonligi, ortish-tushirish ishlariga mosligi va boshqalar. Transport vositalarining atrof-muhitga zararli ta'sirini kamaytiruvchi sifatlar.

2- mavzu. Yuklarning tasniflashi, ularni tashish qoidalari, O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yuk tashish qoidalari

Yuklar xaqida umumiy tushunchalar va ular bilan birga amalga oshiriladigan operatsiyalar. Yuklarning tasnifi. Yuklarning transport tavsiflari va ularning xususiyatlari. Yuklarning tara va upakovkasiga quyiladigan talablar. Yuklarni markirovkalash. Umumiy qoidalar. Tashishning umumiy shartlari. Yuklarning ayrim turlarini tashish xususiyatlari. Tez buziladigan yuklarni tashishga mo'ljallangan avtotransport vositalarini ko'rikdan o'tkazish, Tashish jarayonida yuklarning saklanishini ta'minlash, Yuklarni tashishni tashkil etishning asosiy elementlari. Tashish jarayonida yuklarga ta'sir etuvchi kuchlar. Yuk avtomobil transportini asosiy ish ko'rsatkichlari. Avtomobil transportida tashishni tashkil etish.

3-mavzu. Yuk transport vositalarining ish unumdorligi

Transport vositalarining ish unumi. Transport vositasi ish unumiga ta'sir etuvchi asosiy texnik-ekspluatatsion omillar: Aniq sharoitda ishlovchi transport vositasi ish unumini

ifodalovchi chizma. Yuk avtomobili transport vositalarini tanlash va xisoblash. Yuk avtomobili transport vositalari tanloviga asosiy talablar.

4-mavzu. Yuk avtomobili xarakatini tashkil etish

Avtomobil transporta vositasi xarakatini tashkil etish tamoyillari. Transport vositasining liniyaga chiqishini tashkil etish. Transport vositalari ish rejimi. Xaydovchilar ish rejimi. Yuklarni tashishni boshqarish

Avtomobil transport korxonasi ekspluatatsiya xizmatining tarkibi, maqsadi va vazifalari.

Ma'ruza mashg'ulotining taqvimiy-mavzular rejasi

№	Ma'ruza mavzusi va mazmuni	Soatlari
1.	Transport vositalari va ularga quyiladigan asosiy ekspluatatsion talablar.	2
2.	Yuklarning tasniflanishi, ularni tashish qoidalari, O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yuk tashish qoidalari	2
3.	Yuk transport vositalarining ish unumdorligi	2
4.	Yuk avtomobili xarakatini tashkil etish	2
Jami:		8

X-semestr.

2-modul. Kirish. Avtomobillarda yo'lovchilarni tashish va boshqarish

5-mavzu. Yo'lovchilarni tashish jamoat transporti

Avtomobil transportidagi iqtisodiy isloxotlar. Bozor munosabatlariga o'tishda yo'lovchilarni tashish avtomobil transportining o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekistonda avtomobil transportini rivojlantirish borasida qabul qilingan me'yoriy-xuquqiy xujjatlar. Yo'lovchilarni tashish avtomobil transportining tarixi va rivojlanish yo'nalishlari. Yo'lovchi transporti turlari va ulardan foydalanish doirasi. Jamoat transporti tasnifi va yo'nalishlar tuzilmasi. Avtobuslarning tasniflanishi va ularga qo'yiladigan talablar. Avtomobillarning texnik-ekspluatatsion sifatleri va ularga qo'yiladigan talablar.

6-mavzu. Jamoat transportida tashishni boshqarish

Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi. Avtobuslarda tashishning nozimlik boshqaruvi. Shaxar, shaxar atrofi, shaxarlararo va xalqaro yo'nalishlarda nozimlik boshqaruvi. Avtobuslar xarakatini boshqarishda o'zgartirishlar kiritish. Avtobuslar xarakatini GPS tizimi orkali nazorat kilish va boshqarish. Avtobuslar xarakat muntazamligi. Yo'lovchilarni tashishga ehtiyoj. Aholining transport harakat-chanligi. Shahar transport tarmog'ida yo'lovchilar oqimi kattaliklariga ta'sir etuvchi omillar. Yo'lovchilar oqimi haqida umumiy tushunchalar. Yo'lovchilar oqimini kuzatish usullari.

7-mavzu. Yo'nalishlarda yo'lovchilar tashishni tashkil etish

Tashishni tashkil etish vazifalari. Yo'nalishda avtobuslar xarakat tezliklariga ta'sir etuvchi omillar. Xarakat tezliklarini me'yorlashda avtokorxonada texnik-tasaruf xizmatining vazifalari. Xarakat tezliklarini me'yorlash usullari. Xarakat tezliklarini me'yorlash xaritasi. Avtobus xarakat jadvali va uni tuzish usullari. "Tig'iz" soatlarda shaxar ichi avtobus yo'nalishlarida tashishni tashkil etish. Xaydovchilar va chiptachilar mexnatini tashkil etish. Xaydovchilar ish kunining kundalik xisobi. Xaydovchilarning bir oylik ish vaqti fondi (bir oylik ish balansi). Xaydovchilar mexnatini tashkil etishning uchlangan, ikki yarimtalik, ikkilangan, bir yarimtalik, bittalik va juftlangan shakllari.

8-mavzu. Yengil-avtomobil-taksilar ishini tashkil etish

Yengil avtomobil-taksilarda yo'lovchilar tashishni tashkil etish. Taksilarga bo'lgan ehtiyojni o'rganish. Taksi avtomobillari xizmat bozori. Taksilar ishining texnik-ekspluatatsion ko'rsatkichlari. Yo'nalishli taksilarda yo'lovchilar tashishni tashkil etish.

Yo'lovchilarni shahar, shahar atrofi, shaharlararo va xalqaro tashishlar. Yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifati.

9-Mavzu. Transport vositalari va bekatlarning jihozlanishi. Yo'lovchilar avtovokzallari va avtostansiyalari

Transport vositalarining tashqi jihozlanishi. Transport vositalarining ichki jihozlanishi. Peregonlar va avtobuslar to'xtash bekatlari. Avtobus bekatlari va avtomobil-taksilar to'xtash joyining jihozlanishi. Yo'l haqi, bagajlarni tashish tizimi. Xorijiy davlatlarda jamoat transportida yo'l haqi to'lashtirimi. Shahar yo'lovchilar transportidan bepul foydalanish. Yo'lovchi transportida tarif va chiptalartizimi. Yo'lovchilar avtovokzallari va avtostansiyalari bo'yicha asosiy tushunchalar. Avtovokzal va avtostansiya pasporti. Avtovokzalarning toifalari va avtostansiyalarning darajalari. Avtovokzal va avtostansiyalarning vazifalari. Ularning ish rejimi va texnologik jarayoni.

Ma'ruza mashg'ulotining kalendar tematik rejasi

№	Ma'ruza mavzusi va mazmuni	Soatlari
1	Yo'lovchilarni tashish jamoat transporti	2
2	Jamoat transportida tashishni boshqarish	2
3	Yo'nalishlarda yo'lovchilar tashishni tashkil etish	2
4	Yengil-avtomobil-taksilar ishini tashkil etish	2
5	Transport vositalari va bekatlarning jihozlanishi. Yo'lovchilar avtovokzallari va avtostansiyalari	2
Jami:		10

VII. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar Avtomobillarda tashish texnologiyalari xususiyatlariga bog'liq bo'lgan parametrlarni xissoblash asoslarini o'rganadilar.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar yechish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustaxkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislar chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar yechish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun qo'yidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Transport vositalari va ularga qo'yiladigan asosiy ekspluatatsion talablar. Yuklarning tasniflanishi, ularni tashish qoidalari
2. O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yuk tashish qoidalari. Tashish jarayonida yuklarning saqlanishini ta'minlash. Yuklarni tashishni tashkil etishning asosiy elementlari.
3. Yuk avtomobil transporta asosiy ish ko'rsatkichlari. Yuk transport vositalarining ish unumdorligi, Yuk avtomobili transport vositalarini tanlash va xisoblash.
4. Yuk avtomobili xarakatini tashkil etish. Yuklarni tashishni boshqarish. Yo'lovchilarni tashish jamoat transporti tasnifi va yo'nalishlar tuzilmasi

5. Yo'nalishlarda yo'lovchilar tashishni tashkil etish, Engil-avtomobil-taksilar ishini tashkil etish
 6. Yo'lovchilarni shahar, shahar atrofi, shaharlararo va xalqaro tashishlar, Yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifati
 7. Transport vositalari va bekatlarning jihozlanishi
 8. Yo'l haqi, bagajlarni tashish tizimi
 9. Yo'lovchilar avtovokzallari va avtostansiyalari
- Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jixozlangan auditoriyada bir akademik guruxga bir professor- o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofik.

Amaliy mashg'ulotlarning kalendar tematik rejasi

IX semestr

T/r	Amaliy mashg'ulot mavzusi	Soat
1	Transport vositalari va ularga qo'yiladigan asosiy ekspluatatsiy talablar. Yuklarning tasniflanishi, ularni tashish qoidalari	2
2	O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yuk tashish qoidalari. Tashish jarayonida yuklarning saqlanishini ta'minlash. Yuklarni tashishni tashkil etishning asosiy elementlari.	2
3	Yuk avtomobil transporta asosiy ish ko'rsatkichlari. Yuk transport vositalarining ish unumdorligi, Yuk avtomobili transport vositalarini tanlash va xisoblash.	2
4	Yuk avtomobili xarakatini tashkil etish. Yuklarni tashishni boshqarish. Yo'lovchilarni tashish jamoat transporti tasnifi va yo'nalishlar tuzilmasi	2
5	Yo'nalishlarda yo'lovchilar tashishni tashkil etish, Engil-avtomobil-taksilar ishini tashkil etish	2
	Jami	8

X semestr

T/r	Amaliy mashg'ulot mavzusi	Soat
1	Yo'lovchilarni shahar, shahar atrofi, shaharlararo va xalqaro tashishlar, Yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifati	2
2	Transport vositalari va bekatlarning jihozlanishi	2
3	Yo'l haqi, bagajlarni tashish tizimi	2
4	Yo'lovchilar avtovokzallari va avtostansiyalari	2
	Jami	8

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

Mustaqil ta'lim topshiriqlarini tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'lim quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

- fan va texnikani eng so'ngi yutuqlarini internet tizimi va davriy nashrlardan aniqlab, o'rganib taqdimot shaklida rasmiylashtirish va bu xaqida kafedrada yoki seminarlarda axborot berish;
- ma'ruza darslarida muayyan mavzu bo'yicha tinglangan ma'lumotlarni tarqatma

materiallardan foydalanib, qo'shimcha materiallarni o'zlashtirib mustaqil qayta ishlash:

- o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quv laboratoriyasida mavjud agregat va uzellarni konstruksiyasini amaliy o'zlashtirish;
- masofaviy ta'lim;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalanilgan o'quv mashg'ulotlari;
- o'quv qo'llanmalari yordamida fan mavzularini o'rganish.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

IX- semestr

1. Transport vositalari va ularga qo'yiladigan asosiy ekspluatatsion talablar
2. Yuklarning tasniflanishi
3. O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yuk tashish qoidalari
4. Tashish jarayonida yuklarning saqlanishini ta'minlash
5. Yuklarni tashishni tashkil etishning asosiy elementlari
6. Yuk avtomobil transporti asosiy ish ko'rsatkichlari
7. Yuk transport vositalarining ish unumdorligi
8. Yuk avtomobili transport vositalarini tanlash va hisoblash
9. Yuk avtomobili harakatini tashkil etish
10. Yuklarni tashishni boshqarish

X-semestr

1. Yo'lovchilarni tashish jamoat transporti
 2. Jamoat transporti tasnifi va yo'nalishlar tuzilmasi
 3. Jamoat transportida tashishni boshqarish
 4. Yo'lovchilarni tashishga ehtiyoj
 5. Yo'nalishlarda yo'lovchilar tashishni tashkil etish
 6. Engil-avtomobil-taksilar ishini tashkil etish
 7. Yo'lovchilarni shahar, shahar atrofi, shaharlararo va xalqaro tashishlar
 8. Yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifati
 9. Transport vositalari va bekatlarning jihozlanishi
 10. Yo'l haqi, bagajlarni tashish tizimi, Yo'lovchilar avtovokzallari va avtostansiyalari
- Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

Mustaqil ishni quyidagi topshiriqlar ko'rinishida bajariladi:

- mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
- mavzu bo'yicha elektron taqdimot (PPT) tayyorlash;
- mavzu bo'yicha albom tayyorlash;
- mavzu bo'yicha loyiha yaratish;
- mavzu bo'yicha dialogik matn tuzish;
- terminlar lug'atini tuzish;
- mavzu bo'yicha bahs-munozaraga tayyorlanish;
- maqola yozish;
- berilgan mavzuda klaster tuzish;
- mavzuga oid so'zlardan krossvord tuzish;
- ma'lumotlardan jadval tuzish;

Mustaqil ishlarni baholash tartibi

Mustaqil ta'lim talabning bajaradigan mustaqil ishi bo'lib, undan maqsad, talabning o'qishi davomida olgan bilimni mustahkamlash, chuqurlashtirish va umumlashtirishdan iboratdir.

Mustaqil ish uchun ajratilgan soatlarni talaba o'zlashtirish uchun ularga referat yoki mustaqil ish shaklida mavzular taqsimlab beriladi. Mustaqil ta'limning mavzulari talabalar uchun mustaqil o'zlashtirishlari shart bo'lgan mavzulardan tashkil topgan. U talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash va kengayishiga, o'qitilayotgan va o'tilgan mavzularni kengroq va chuqurroq o'rganishda hamda dunyoqarashini yana ham kengayishiga yordam beradi. Shuningdek, mustaqil ta'limga mo'ljallangan topshiriqlar seminar mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan. Bundan tashqari talabalar, ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirishlari natijasida ilmiy maqolalar tayyorlashlari mumkin, hamda ilmiy-amaliy konferentsiyalarda ilmiy ma'ruzalar qilishlari mumkin. Referat, taqdimot, ma'ruzalar kafedra tomonidan belgilab berilgan hajmda bo'lishi kerak.

Kurs ishi uchun tavsiya etiladigan mavzular:

O'quv rejada kurs ishi ko'zda tutilmagan.

Avtomobillarda tashish texnologiyalari fanidan talabalar bilimni baholash mezonlari

Oraliq baholash

"Avtomobillarda tashish texnologiyalari" fani bo'yicha nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek oraliq baholash va yakuniy nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

Oraliq baholash (OB) –semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq baholash semestr davomida bir marta o'tkaziladi.

OB da talabalar bajargan mustaqil ishlari, yozma nazorat topshirig'i va amaliy, tajriba mashg'ulotlarda olgan baholarini hisobga olinadi. OB bali quyidagicha aniqlanadi:

$$OB = \frac{NT + MI + AI + TI}{4}$$

Bunda *NT* - talaba bajargan nazorat topshirig'i bahosi;

MI - talaba bajargan mustaqil ishi bahosi;

AI - talabaning amaliy mashg'ulotda olgan bahosi.

TI - talabaning tajriba ishlari bo'yicha hisobotini himoyasi bahosi.

Nazorat topshirig'i (NT)-mavzu mashg'ulotlarida qamrab olinmagan va mustaqil o'rganishga berilgan mavzular bo'yicha talabaning bajargan topshiriq uchun olgan bahosi.

Yakuniy nazorat (YaN) –semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" yoki test shaklida o'tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini baholash talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasini 5 ballik tizimda ifodalanadi.

OB kalendar tematik rejaga muvofiq tuzilgan jadvallar asosida o'tkaziladi. YaN semestrning oxirgi haftasi mobaynida o'tkaziladi.

Talaba semestrda OB da qoniqsiz baho olsa YaN ga kirishiga ruhsat etilmaydi.

Yakuniy nazoratda qoniqsiz baho olgan talaba akademik qarzdor deb hisoblanadi va belgilangan tartibda qayta topshirish jadvali asosida qarzdorlikni bartaraf etish lozim.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Dasturning informatsion uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida:

- Avtomobillarda tashish texnologiyalari fanining tarkibiy bo'limlariga tegishli ma'ruza darslariga asoslangan elektron majmuadan:

- Amaliy mashg'ulotlarida tashish texnologiyalari o'rganishda ta'lim texnologiyalaridan, amaliy ish o'yinlaridan:

- Avtomobillarda tashish texnologiyalari uchun tayyorlangan yuroqi darajali animatsiyalangan multimediyalardan:

- Avtomobillarda tashish texnologiyalari, ishlash jarayoni aks ettirilgan o'quv filmlari va plakatlardan foydalanish nazarda tutilgan.

Asosiy adabiyotlar

1. B. A.Xo'jaev-Avtomobillarda yuk va yo'lovchilarni tashish asoslari T.:

"O'zbekistan", 2002.

2. Jo'rayeva G.Sh., Ataxonov X.B., Abdumajidov R.B., Ustaboyev A.R., Xidirov U.X. Transport logistika-Darslik; Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2024.-224 b.

3. N.Z.Arifjanova, M.F.Yoqubov. Avtomobillarda yuk va yo'lovchilarni tashish asoslari (masalalar to'plami). T.: Fan, 2007

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoev. Erkin va farovon demokratik O'zbekistan davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: O'zbekistan, 2016.

2. O'zbekistan Respublikasi Prezidentining "O'zbekistan Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha Xarakteristik strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni ("Xalq so'zi", gazetasi, 2017 yil, 8 fevral)

3. Sh. Mirziyoev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O'zbekistan, 2017.

4. Transport vazirligining transportini davlat tomonidan boshqarish, tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha normativ-xuquqiy xujjatlar to'plami. T.: 2020

Axborot manbalari

1. www.gov.uz;

2. www.lex.uz;

3. www.ziynet.uz;

4. www.bilim.uz;

5. www.edu.uz;